


# QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: (75)-221-32-36  
[www.qashstat.uz](http://www.qashstat.uz)

## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)


Bugungi kunda viloyatda 3 995 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 118 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,2 % i) Qarshi shahriga, 618 tasi (10,1 %) Kitob tumaniga, 545 tasi (8,9 %) Yakkabog' tumaniga, 456 tasi (7,4 %) G'uzor tumaniga va 441 tasi (7,2 %) Qarshi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Jami faoliyat yuritayotgan



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalarda sanoat korxonalarining ulushi

### Jami yangi tashkil etilgan



Qarshi sh.	123
G'uzor t.	99
Qarshi t.	71
Qamashi t.	59
Yakkabog' t.	58
Shahrisabiz sh.	56
Shahrisabiz t.	48
Kitob t.	47
Koson t.	40
Kasbi t.	39
Chiroqchi t.	34
Mirishkor t.	25
Ko'kdala t.	24
Nishon t.	21
Muborak t.	15
Dehqonobod t.	13

● Faoliyat yuritayotgan





● Yangi tashkil etilgan

## Qashqadaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 20 425,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,0 % ni tashkil etdi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.





## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (39 154,7 ming so'm), G'uzor tumanida (13 353,4 ming so'm) hamda Qarshi shahrida (9 258,9 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 817,7 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi


5,8 mln. so'm



ming. so'mda — o'sish sur'ati, % da


## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 16 190,3 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,3 % ni tashkil etdi.




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nishon tumani (26,9 %), G'uzor tumani (17,7 %), Qarshi tumani (7,8 %), Qarshi shahri (6,5 %) Kasbi tumani (6,1 %) hamda Kitob tumani (5,8 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Muborak tumanida (139,7 %), Nishon tumanida (123,8 %) hamda Kitob (118,3 %) tumanida kuzatildi.



yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'ycha  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da\*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Shag'al, ming t.	26,2	41,5	15,3
Neft, ming t.	15,3	8,7	- 6,6
Tabiiy gaz, mln. kub.m	422,0	63,2	- 358,8
Gaz kondensati, ming t.	89,0	82,0	- 7,0

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida



**Ishlab chiqaradigan sanoat** bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16 190,3 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 79,3 % ni tashkil etdi.


Muborak t.	139,7
309,9	
Nishon t.	123,8
4 355,7	
Kitob t.	118,3
934,6	
Ko’kdala t.	108,7
117,1	
Qamashi t.	107,5
540,1	
Chiroqchi t.	106,7
511,2	
Yakkabog’ t.	105,6
620,2	
Mirishkor t.	104,4
510,3	
Kasbi t.	104,2
990,2	
Shahrisabz sh.	104,0
322,8	
G’uzor t.	102,4
2 863,8	
Koson t.	102,3
781,2	
Shahrisabz t.	101,4
345,2	
Qarshi t.	100,2
1 268,0	
Qarshi sh.	81,5
1 045,9	
Dehqonobod t.	74,0
674,1	

mlrd. so’mda


FHI, % da




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,6 % (22,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 25,8 % (4,1 %), quyi texnologiyali 37,4 % (46,5 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 0,5 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 12,0 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 9,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,8 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,4 %) ga to'g'ri keldi.

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,8 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,9 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,3 %) ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 299,0 ming tonna dizel yoqilg'isi (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 4,2 m), 44,2 ming tonna kalava ip (121,8 %), 1 536,1 ming litr aroq mahsulotlari (84,6 %) hamda 25,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (26,5 %) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Paxta linti, ming t.	2,5	2,4	- 0,1
Aroq, ming litr.	1 816,4	1 536,1	- 280,3
Kalava ip, ming t.	38,9	44,2	3 012
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	97,1	25,8	- 72,2
Paxta tolasi, ming t.	39,2	46,5	7,3

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Metallurgiya sanoati

**Metallurgiya sanoati** – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 12,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish** – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xom-ashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 237,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 092,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,9 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,1 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 2 432,1 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

**Ichimliklar ishlab chiqarish** – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 116,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 116,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 21,6 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,3 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 4 421,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



### Kiyim ishlab chiqarish

**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 128,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 540,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,5 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 91,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 171,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish** – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 102,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 69,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

**Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish** – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblarga uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 91,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 75,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish** – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,03 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 44,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonlari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-sentabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 89,2 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 105,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	6 629,1	6 047,3	- 581,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 366,0	2 497,6	131,6

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 71,6 % hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 127,1 % ga teng ekanligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	10 288,9	83 658,6	73 369,7
Suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	65 808,0	7 366,7	- 58 441,3

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra




## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 3 430,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,6 %, uning jami sanoatdagi ulushi 16,8 % ga to'g'ri keldi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 2 099,3 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 3,6 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Muborak tumani (137,2 %), Mirishkor tumani (122,0 %) hamda Dehqonobod (115,2 %) viloyati korxonalari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari



### Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 63,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 36,1 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 61,0 %\*, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 39,0 %\* ni tashkil etdi.



Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 103,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 99,2 % ga to'g'ri keldi.

\* 2023- yil hisoblash metodikasi bo'yicha



## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

**Iste'mol tovarlari** – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 18,1 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 10,6 %, Koson tumani 9,3 %, Shahrisabz shahri 7,7 % ekanligi kuzatildi.




Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol tovarlarining ulushi



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 977,1 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 2 131,0 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 1 807,1 ming so'mni, Muborak tumanida – 1 770,9 ming so'mni va Chiroqchi tumanida – 1 394,7 ming so'mni tashkil etdi.

yanvar-sentabr  
ming. so'mda





Viloyatda aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi hajmi

**977,1** ming. so'm




yanvar-sentabr  
o'sish sur'ati, % da



## Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 14,5 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 9,3 % ni, Koson tumani 9,1 % ni va Qamashi tumani 6,8 % ni tashkil etdi.

yanvar-sentabr  
mlrd.so'mda




Jami iste'mol tovarlari ishlab  
chiqarish hajmidagi ulushi

36,1 %



yanvar-sentabr  
o'sish sur'ati, % da




Muborak t.	132,4
59,4	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Mirishkor t.	128,5
60,9	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Dehqonobod t.	110,0
55,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Ko'kdala t.	108,6
36,9	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Shahrisabz sh.	106,5
79,1	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
G'uzor t.	105,2
68,6	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qarshi sh.	104,1
179,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Kitob t.	102,2
58,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qamashi t.	101,7
83,8	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Koson t.	101,6
112,4	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Nishon t.	101,4
47,1	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qarshi t.	101,3
64,5	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Kasbi t.	97,2
82,0	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Yakkabog' t.	94,6
84,8	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Chiroqchi t.	88,8
115,1	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
shahrisabz t.	80,1
51,0	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●

● ● mlrd. so'mda      o'sish sur'ati, % da

## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 21,0 % ni, Chiroqchi tumaniga 12,0 % va Koson tumaniga 9,8 % ekanligi kuzatildi.

yanvar-sentabr  
mlrd.so'mda




Jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

61,2 %



yanvar-sentabr  
o'sish sur'ati, % da




Muborak t.	154,8
104,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Koson t.	149,0
205,6	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Mirishkor t.	121,0
68,1	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Shahrisabz sh.	114,1
152,0	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Kasbi t.	112,4
120,1	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Dehqonobod t.	108,9
59,8	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
G'uzor t.	106,3
76,9	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Ko'kdala t.	105,9
65,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Chiroqchi t.	104,3
252,3	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Kitob t.	103,8
67,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qarshi t.	103,6
86,3	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qamashi t.	103,2
78,0	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Shahrisabz t.	89,7
144,7	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qarshi sh.	85,3
441,6	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Yakkabog' t.	83,8
103,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Nishon t.	75,8
73,9	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●

● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da


## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 372,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,4 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 26,3 % ni tashkil etgan.

yanvar-sentabr  
mlrd.soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining  
jami sanoat ishlab chiqarish  
hajmidagi ulushi



yanvar-sentabr  
ulushi, % da



Koʻkdala t.	100,0
117,1	
Shahrisabz sh.	86,2
283,9	
Chiroqchi t.	79,0
410,5	
Shahrisabz t.	53,
205,1	
Muborak t.	48,4
251,1	
Mirishkor t.	43,9
224,8	
Qamashi t.	40,1
218,6	
Koson t.	36,5
325,4	
Yakkabogʻ t.	35,7
222,1	
Qarshi sh.	30,1
811,2	
Kasbi t.	29,5
292,4	
Kitob t.	26,2
263,1	
Qarshi t.	22,6
286,7	
Dehqonobod t.	19,1
128,9	
Gʻuzor t.	6,5
191,0	
Nishon t.	2,2
140,6	

● mlrd. soʻmda    Ulushi, % da

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 37 ta loyiha bo'yicha 5 021,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 59,1 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 92 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

